

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI
BOSHQARISHNING KVALIMETRIK PARAMETRLARI VA MEZONLARI**

Karimova Maxbuba Mukimjonovna

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti "Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishda kvalimetrik yondashuvning o'rni va ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ta'lim sifatini baholashda qo'llaniladigan asosiy kvalimetrik parametrlari — pedagogik jarayon samaradorligi, o'quvchilar kompetensiyalari darajasi, o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ta'lim muassasasining boshqaruv salohiyati, o'quv-metodik ta'minot sifati va moddiy-texnik baza holati kabi ko'rsatkichlar yoritiladi. Shuningdek, sifatni baholash mezonlari va ularning indekslash, reytinglash hamda monitoring tizimlarida qo'llanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim sifatini boshqarishda obyektiv, o'lchovli ko'rsatkichlar asosida qaror qabul qilishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, kvalimetriya, boshqaruv, baholash mezonlari, sifat indikatori, monitoring, reyting, pedagogik jarayon, o'qituvchi kompetensiyasi, o'quvchi kompetensiyasi, ta'lim menejmenti.

**КВАЛИМЕТРИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ И КРИТЕРИИ УПРАВЛЕНИЯ
КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ.**

Каримова Махбуба Мукимжоновна

*Независимый научный сотрудник Национального института педагогического
мастерства имени А. Авлони Преподаватель кафедры «Педагогика» Ташкентского
государственного педагогического университета имени Низоми*

Аннотация: В статье научно анализируется роль и значение квалиметрического подхода в управлении качеством образования в общеобразовательных школах. Рассматриваются основные квалиметрические параметры, применяемые при оценке качества образования: эффективность педагогического процесса, уровень компетенций учащихся, профессиональное мастерство учителей, управленческий потенциал образовательного учреждения, качество учебно-методического обеспечения и состояние материально-технической базы. Также исследуются критерии оценки качества и возможности их применения в системах индексации, рейтинга и мониторинга. Полученные результаты способствуют совершенствованию принятия управленческих решений на основе объективных и измеряемых показателей.

Ключевые слова: *качество образования, квалиметрия, управление, критерии оценки, показатели качества, мониторинг, рейтинг, педагогический процесс, компетентность учителя, компетенции учащихся, образовательный менеджмент.*

QUALIMETRIC PARAMETERS AND CRITERIA FOR MANAGING EDUCATION QUALITY IN GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS.

Karimova Makhbuba Mukimzhonovna

*Independent researcher at the National Institute of Pedagogical Excellence named after A. Avloni
Lecturer at the Department of Pedagogy, Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi*

Abstract: *This article provides a scientific analysis of the role and significance of the qualimetric approach in managing education quality in general secondary education institutions. It examines the key qualimetric parameters used in assessing education quality, including the effectiveness of the pedagogical process, students' competency levels, teachers' professional skills, managerial capacity of the school, quality of instructional support, and the condition of material and technical resources. The study further explores evaluation criteria and their application in indexing, rating, and monitoring systems. The findings support the improvement of decision-making in education quality management based on objective and measurable indicators.*

Keywords: *education quality, qualimetry, management, evaluation criteria, quality indicators, monitoring, rating, pedagogical process, teacher competence, student competencies, education management.*

Mamlakatimizda pedagogik monitoring tajribasini oshib borishi ta'lim sohasidagi muammolarni aniqlash, ta'lim-tarbiya jarayonidagi miqdoriy o'sish dinamikasi, faoliyat natijalarini yaxlitlash, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar samaradorligini tahlil qilish kabi umumiy faoliyatni nazorat qilish hamda boshqaruvning innovatsion tizimini yo'lga qo'yish tendensiyalariga imkoniyat ochib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli qonunning 42-moddasida "Ta'lim tizimida monitoring ta'limning holatini, ta'lim natijalarining o'zgarish sur'atlarini, ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan shartsharoitlarni o'rganish va kuzatishni, shuningdek ta'lim oluvchilarning kontingenti to'g'risidagi ma'lumotlarni va boshqaruv qarorlari qabul qilinishini tahlil etishni o'z ichiga oladi" deya belgilab qo'yilgan.

Mavjud vazifalarni ijrosini ta'minlash va tahlil qilishda monitoring va kvalimetrik yondashuvlarsiz natijadorlikni aniq va haqqoniylik asnosida baholab bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash – jamiyatning ta'lim sub'ektlari salohiyatini kuchaytirish, jamiyatga ma'naviy-axloqiy sifatga ega, yetuk va malakali mutaxassislarni yetkazib berish ehtiyoji tufayli yangicha zamonaviy yondashuvni talab etadi

“Kvalitologiya” atamasi oʻtgan asrning 60-yillarida paydo boʻlgan boʻlib, A.V. Glichev va A.I.Subbetoning bir qator fundamental ishlari tufayli ilmiy sohada mustahkam oʻrnashgan. “Bu atama insonlar tomonidan yaratilgan obektlar va jarayonlar toʻgʻrisidagi fanning nomini ifodalaydi. Kvalitologiya XXI asrda sifat muammosi toʻgʻrisida fikrlash va tushunishga imkon beruvchi “sifat falsafasi”ni va uslubiy dunyoqarashni rivojlantirish bilan chambarchas bogʻliq”.

Kvalitologiya — bu sifatni oʻrganish, baholash va boshqarishning ilmiy yoʻnalishi boʻlib, u mahsulot, xizmat yoki jarayonlarning sifatini aniqlash va oshirish tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu fan asosan sanoat, taʼlim, menejment, texnika va boshqa sohalarda qoʻllaniladi.

Kvalitologiya — bu sifat (lotincha qualitas — sifat) haqidagi umumiy nazariya bilan shugʻullanuvchi ilmiy yoʻnalishdir. U har qanday obʼyekt, hodisa yoki jarayonning sifatini aniqlash, baholash, boshqarish va takomillashtirish qonuniyatlarini oʻrganadi. Quyida bu soha boʻyicha ayrim mashhur olimlar fikrlari keltirilgan:

G.G. Azgaldov kvalitologiya fanining asoschisi hisoblanadi. Uning fikricha “Kvalitologiya – bu umumiy sifat nazariyasini oʻrganuvchi fan boʻlib, u nafaqat sifatni baholash va taqqoslash usullarini, balki sifatni boshqarishning asosiy qonuniyatlarini ham oʻz ichiga oladi”.

V.V.Okrepilov taʼkidlashicha “Kvalitologiya sifatni kompleks yondashuv asosida baholashni nazarda tutadi, bunda iqtisodiy, texnik, ijtimoiy va ekologik mezonlar uygʻunlashadi”.

A.I.Subetto kvalitologiyani fanlararo yoʻnalish sifatida qaraydi. Uning fikricha “Kvalitologiya – bu inson faoliyatining barcha sohalarida sifatni aniqlash, tahlil qilish va boshqarishning falsafiy-metodologik asosi”. A.I.Subetto “sifatni oʻrganish sohasidagi turli xil muammolarni metodik va metodologik hal qilishni taʼminlash uchun moʻljallangan, kvalitologiyani tashkil etuvchi muhim uchbirlik tamoyilini ishlab chiqqan. Bular muammoga yoʻnaltirilgan ilmiy va amaliy komplekslar boʻlib:

- sifat nazariyasi, yaʼni taʼlim sifatini shakllantirish tamoyillarini oʻrganuvchi qonunlar, qonuniyatlar va tamoyillar;
- kvalimetriya, yaʼni taʼlim sifatini oʻlchash qonuniyatlari, tamoyillari va uslublari;
- sifatni boshqarish nazariyasi, yaʼni sifatni boshqarish uslublari, qonuniyatlari, tamoyillari, mexanizmlaridir”.

Kvalitologiyaning uch birlik tamoyili:

- tushunchalar va kategoriyalarning birligi;
- oʻza.ro bo.gʻla.ng.an ta.mo.yi.ll.ar va kl.as.si.fi.ka.ts.iy.al.ar.ni ya.go.na ti.zi.mi;
- si.fa.t nazariyasi, kvalimetriya va sifatni boshqarish nazariyalari qonuniyatlarini oʻzaro bogʻlanishini taʼminlab beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz kvalitologiyaning uch birlik tamoyilining sifatni boshqarish nazariyasi tamoyiliga asoslangan holda maktabgacha taʼlim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini rivojlantirishni oʻrgandik.

Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida umumiy oʻrta taʼlim tizimini rivojlantirish, taʼlim tashkilotlarida kvalitologik yondashuv asosida taʼlimiy-

tarbiyaviy jarayonlarni samarali tashkil etish, o'quv jarayonida rahbar xodimlarni kompetensiyalarini takomillashtirishning innovatsion usullarini tadqiq etganlar.

Umumiy o'rta ta'limda boshqaruv, rahbarning boshqaruv, moliyaviy kompetensiyasi, menejerlik qobiliyati va klaster yondashuv bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarizni ishlarini ham o'rgandik.

Kvalimetrik parametrlarning nazariy asoslari quyidagi jihatlarini o'z ichiga oladi:

1. Ta'lim sifatining ko'rsatkichlari: Bu ko'rsatkichlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash uchun ishlatiladi. Ular ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq ishlab chiqiladi.

2. Baholash mezonlari: Kvalimetrik baholashda aniq va aniqlangan mezonlar asosida ta'lim sifatini baholash muhimdir. Bu mezonlar ta'lim jarayonining turli jihatlarini qamrab oladi, masalan, o'qitish usullari, o'quv materiallarining sifati va o'quv muhiti.

3. Miqdoriy baholash usullari: Kvalimetrik parametrlar miqdoriy baholash usullarini o'z ichiga oladi, masalan, testlar, so'rovnomalar va statistik tahlillar orqali ma'lumot to'plash va tahlil qilish.

4. Ta'lim sifatini monitoring qilish: Kvalimetrik parametrlar ta'lim sifatini doimiy ravishda kuzatish va baholash imkonini beradi, bu esa ta'lim muassasalariga o'z faoliyatini yaxshilash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi.

Kvalimetrik parametrlarning samarali qo'llanilishi ta'lim muassasalariga ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarning natijalarini oshirish va ta'lim jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi.

Kvalimetrik o'lchovlar – ta'lim sifatini miqdoriy baholash uchun ishlatiladigan ko'rsatkichlar va metodlar tizimidir. Ular ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash va nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu usullar ta'lim sifatini obyektiv va tizimli baholash imkonini beradi.

Kvalimetrik o'lchovlarning asosiy xususiyatlari:

1. Miqdoriy baholash – ta'lim jarayonining turli jihatlarini sonli ko'rsatkichlar orqali baholash.

2. Obyektivlik – shaxsiy fikr va munosabatlar ta'sirisiz aniq va xolis baholash imkonini yaratadi.

3. Tizimli yondashuv – ta'lim sifatini barcha yo'nalishlarda (o'quvchilar bilimi, o'qituvchi mahoratlari, o'quv jarayoni) qamrab oladi.

Kvalimetrik o'lchov turlari:

1. Bilimlar darajasini baholash

- Test natijalari

- Nazorat ishlari natijalari

- Davlat attestatsiyalari

2. O'qituvchi faoliyatini baholash

- Pedagogik mahorat va innovatsion yondashuvlar

- Darslarning samaradorligi va metodik turfakilligi

3. Ta'lim muhiti va resurslar

- O'quv jarayoniga mos keladigan infratuzilma
- Kitoblar va axborot texnologiyalari imkoniyatlari

Kvalimetrik baholash mezonlari:

- Mazmun sifatleri – o'quv materialining dolzarbligi va chuqurligi.
- O'qitish usullari – yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi.
- O'quvchilarning yutuqlari – bilim va ko'nikmalarning amaliyotga tatbiq etilishi.

Kvalimetrik o'lchovlarning afzalliklari:

Aniq va xolis baholash imkoniyati.

Ta'lim jarayonining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash.

Sifatni yaxshilash uchun asosli tavsiyalar ishlab chiqish.

Kvalimetrik o'lchovlar – ta'lim sifatini miqdoriy baholash uchun ishlatiladigan ko'rsatkichlar va metodlar tizimidir. Ular ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash va nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu usullar ta'lim sifatini obyektiv va tizimli baholash imkonini beradi.

Sh.R.Xolbo'tayev kvalimetrik parametrlar bu ta'lim sifatini o'lchashda qo'llaniladigan sonli va sifatli ko'rsatkichlardir. Ular asosida dars sifatini, o'quvchining rivojlanish darajasini baholash mumkin deb izohlaydi.

B.X.Axmedov kvalimetrik parametrlar ta'lim jarayonining samaradorlik darajasini aniqlovchi mezonlar bo'lib, ular orqali ta'lim islohotlarining real natijasi aniqlanadi deb ta'rif beradi.

V.P.Bespalko kvalimetrik parametr o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlarini raqamli mezonlar orqali ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, uni aniqlash baholash va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi deb izohlaydi.

I.A.Zimnyaya kvalimetrik parametrlar ta'lim tizimidagi sifatni o'lchovli tarzda tahlil qilish, taqqoslash va boshqarish uchun xizmat qiluvchi indikatorlar to'plamidir deb ta'rif keltiradi.

M.M.Potashnik kvalimetrik parametrlar ta'lim sifatini tashkil etuvchi komponentlarning funksional o'lchovidir. Ular yordamida sifatni modellashtirish va rejalashtirish amalga oshiriladi deb izohlaydi.

Kvalimetrik parametrlar - bu obyekt ta'lim sifatining miqdoriy yoki sifat jihatdan o'lchanadigan belgilari bo'lib, ular orqali sifat darajasi baholanadi. Ular kvalitologiya va kvalimetriya fanlarining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim sifati masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki kelajak avlodni kompetensiyali, ijodkor va raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalovchi ijtimoiy institutdir. Shu sababli ta'lim sifatini boshqarishda ilmiy asoslangan, aniq va shaffof baholash tizimlarini joriy etish zarur. Bunday yondashuvlardan biri bu kvalimetrik yondashuvdir.

Yuqoridagi tushunchalarning tahlili asosida "Kvalimetrik parametrlar" tushunchalariga mualliflik ta'rifi shakllantirildi:

Kvalimetrik parametrlar – bu ta'lim sifati komponentlarini miqdoriy baholash imkonini beruvchi, standart va individual mezonlarga asoslangan o'quv jarayonining holati

va natijalarini raqamli ko'rsatkichlarga asoslangan, boshqaruv, nazorat va rejalashtirish tizimlarining samaradorligini ifodalovchi indikatorlar tizimidir.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishda kvalimetrik parametrlar va mezonlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblandi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining samaradorligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi hamda ta'lim muassasasi boshqaruvi samaradorligi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillarni o'lchash va baholash uchun kvalimetrik parametrlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Kvalimetrik parametrlar obyekt, jarayon yoki xizmatning sifatini matematik modellar, mezonlar va ko'rsatkichlar orqali o'lchash va o'quv jarayonini sifat jihatdan baholash, nazorat qilish va boshqarishda qo'llanildi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishda kvalimetrik parametrlardan foydalanish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, natijalarni ilmiy asosda o'lchash va baholash, shuningdek, xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Имомова Ш., Қосимов И., Маматқулов Б. Таълим сифати ва уни баҳолашнинг квалиметрик асослари. — Тошкент: Фан, 2020.
2. Махмудова Д. Педагогик фаолиятда сифат кўрсаткичларини баҳолаш усуллари. — Тошкент, 2019.
3. Бобоев М., Хайдаров А. Таълим сифатини бошқаришнинг инновацион йўналишлари. — Тошкент, 2022.
4. Горбуна Л.Г. Квалиметрический мониторинг учебных достижений студентов // Высшее образование в России. 2010. №3.
5. Ефремова О.А. и др. Концептуальная модель квалиметрического мониторинга в сфере образования // Философия образования. – 2011. №. 5. С. 58-71.
6. Загвязинская Э. В. Анализ качества образования российских школьников: культурологический аспект. Образование и наука. – 2006. – № 6(42). – С. 10–20.
7. Кулемин Н. А. Квалиметрический мониторинг управления качеством образования: концепция, технология, модель: Монография. – М.; Ижевск: Алфавит, 2000. – 187 с.
8. Леус, О. В. Метод измерения латентных переменных в квалиметрическом мониторинге показателей профессионального роста учителя. Леус О. В., Петьков В. А. Общество: социология, психология, педагогика. – 2019. – № 4. – URL: